
Maktab o'quvchilariga kasb-hunar o'rgatish maqsadida tumandagi yirik korxonalar faoliyati tanishtirilmoqda

Toshloq tumanida o'quvchilarni maktab davridayoq aniq bir kasb-hunarni puxta o'zlashtirishi uchun tizimli ishlar olib borilmoqda. Yoshlarni kasb-hunar o'rganishlari uchun tumandagi barcha umumta'lim maktablarida shart-sharoitlar yaratib berilgan. Hozirgi kunda o'quvchilar 10 ta kasb-hunar va 2 ta xorijiy tillarni o'rganishmoqda.

Bundan tashqari, yoshlarga kasb-hunar sirlarini mukammal o'rgatish uchun tumandagi yirik korxonalarda sayohatlar uyushtirilib, ishlab chiqarish jarayonlari yaqindan tanishtirilmoqda.

Kuni-kecha o'quvchi qizlar "Amira Textile" korxonasi hamda "SMSHD tex" mas'uliyati cheklangan jamiyatida bo'ldilar. Ularga ishlab chiqarilayotgan tirikotaj mahsulotlari namoyish qilinib, mutaxassislar tomonidan jarayonlar tushuntirildi.

Yoshlar korxonalarda zamonaviy qurilmalar hamda tikuv mashinalarda ishlab chiqarilayotgan kiyim-kechaklarni tayyorlanishini kuzatdilar.

2023-10-13 11:41:12